



ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA ADABIYOT DARSLARINI TASHKIL ETISH

Mirzayeva Sayyora Toyirovna

Toshkent kimyo-texnologiya instituti

Menejment va kasb ta'limi fakulteti

O'zbek tili va professional ta'lim kafedrasida assistenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7546307>

ARTICLE INFO

Received: 09th January 2023

Accepted: 17th January 2023

Online: 18th January 2023

KEY WORDS

Zamonaviy yondashuvlar, zamonaviy o'quvchi imidji, adabiy ko'nikmalar, PISA dasturi, tayanch kompetensiyalar, zamonaviy pedagogik faoliyat, fikrlash bosqichlari, nostandart vaziyat.

ABSTRACT

Ushbu maqolada adabiyot o'qitish metodikasi fani tadriji, adabiyot darslarini zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish zarurati, zamonaviy o'quvchi imidjini shakllantirishda adabiyot fanlariga qo'yilayotgan talablar hamda o'quvchilarning adabiy ko'nikmalarini shakllantirishdagi pedagogik shart-sharoitlar haqida fikr yuritilgan

Kirish.

Bugungi kunda mamlakatimizning barcha sohalarida bo'lgani singari ta'lim tizimida ham o'ziga xos yangiliklar qaror topmoqda. Ayniqsa ta'lim tizimini texnologiyalashtirish, ta'lim samaradorligini oshirish hamda ijtimoiy hayotimizga kirib kelayotgan yangi pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayonlariga qo'llash asosiy vazifalarimizdan biri bo'lib qolmoqda. Chunki yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini tezda qabul qilish, ularni tahlil etib, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosa chiqarish hamda o'quvchi-talabalarga yetkazib berish eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Pedagogik yondoshuv hamda pedagogik texnologiyalarning rivojlanish istiqbollari uning nazariy asoslarini tanqidiy ravishda tahlil qilish, ta'lim jarayoniga nisbatan samarali yo'lning qaror topishi hisobiga ta'minlanadi. Ya'ni ma'lum bir vaqt oralig'ida pedagogik texnologiyaning nazariy asoslarini o'zgartirish bilan birga uning "muammo maydoni"ni ham o'zgartirish mumkin bo'ladi. Ta'lim jarayonini texnologik yondashuv asosida tashkil etish bir qator didaktik vazifalarni ijobiy hal etishni taqozo qiladi. Jumladan, didaktik maqsadlar ro'yxatini ishlab chiqish, ularga muvofiq ravishda ta'lim jarayonini loyihalashda yaxlit jarayon hamda uning bosqichlari o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash, o'quvchi-talabalar tomonidan ijtimoiy tajribaning to'laqonli o'zlashtirilishi, barcha o'quvchitalabalar bilim, ko'nikma va malakalari darajalarining tenglashuviga erishish va hokazolar. Ma'lumki, har qanday pedagogik yondoshuv hamda texnologiyalar ta'limni rivojlantiruvchi tamoyillarga asoslangan bo'lib, o'quvchi shaxsini tarbiyalashga yo'naltirilmog'i lozim. Pedagogik texnologiya nazariyasining markazida ta'lim jarayonining rahbari, ayni vaqtda ushbu jarayonning subyekti bo'lgan o'qituvchi va talabalar turadilar. Shunday ekan, ushbu subyektlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik, o'zaro muloqot, ularning bir-



birlariga nisbatan ko'rsatadigan aks ta'sirlari eng zamonaviy talablarga javob bera olishi zarur. Buning uchun o'qituvchi eng avvalo ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga nisbatan qo'yiluvchi talablar, ta'limni tashkil etish va boshqarish tamoyillari, yo'llari, o'quvchini aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirishga xizmat qiluvchi usullar u bilan hamkorlik qilish, uni o'qish va o'rganishga yo'naltirish, o'quvchi shaxsi faoliyatini to'g'ri tashkil etish, u bila muloqotga kirishish, pedagogik faoliyatni tashkil etish jarayonida yuzaga keluvchi muammo va kelishmovchiliklarni bartaraf etish, auditoriyada ijodiy, ishchanlik muhitini hosil qilish, o'quvchi faoliyatini hosil qilish, aniq va to'g'ri baholashha imkon beruvchi metodlar bilan qurollangan bo'lishi lozim [1].

Yurtimiz mustaqillikka erishgandan so'ng nafaqat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotda, balki ta'lim-tarbiya jarayonida ham jiddiy o'zgarishlar amalga oshirila boshladi. Endilikda rivojlanib kelayotgan avlodning ma'rifatini sog'lomlashtirish, ularga bilim va ko'nikmalarni tayyor holatda berishdan ko'ra mustaqil va ijodiy fikrlashga yo'naltirish va jarayonda ta'lim oluvchilarni faqatgina ijrochi bo'lib qolmasdan, erkin va faol ishtirokchi darajasiga olib chiqish va bunday tizimli ishlarni yangi bosqichga ko'tarish ishlari qidirilmoqda. Yosh avlod ta'lim-tarbiyasida ma'lum bir qolip asosida fikrlaydigan, ana shu qolip asosida bir xulosaga keladigan avlodning o'rniga, ma'naviy qiyofasi o'zgacha, ma'naviy sifatleri yetakchiligi, ma'rifatni rivojlantirishda milliy va diniy qadriyat, urf-odat va an'analarga suyanish lozimligiga diqqat qaratilmoqda.

Jamiyatning barcha qatlamlarini ma'nau sog'lom etib tarbiyalashda badiiy adabiyotning o'rni beqiyos darajada. Lekin asardagi kitobxonga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan hollarni olish, salbiy ta'sirga ega vaziyatlardan xulosa chiqarish, badiiy matnda aks etadigan adolat va adolatsizlik haqiqatlarini to'la anglash, yaxshilik va yomonlik his qilib, qalbni tozalashga xizmat qiladigan o'rinlarni topib, ularni sindirish ishlari ham osonlikcha bo'ladigan hodisalar emas. Ta'lim va tarbiya jarayonidagi bu kabi murakkab jarayonlarni amalga oshirish pedagogika va badiiy adabiyot kabi fanlarning birgalikdagi uzviy hamkorligini talab etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bugungi zamonaviy ta'lim tizimining asosiy unsurlaridan biri bu, shubhasiz, yangicha pedagogik yondashuvlar, innovatsion pedagogik texnologiyalardir. Ushbu pedagogik yondashuvlar asosida texnologiyalar orqali dars jarayonlarining olib borilishi yoki tashkil etilishi o'quvchilarning ham erkin, ham yangicha fikrlashlariga katta yo'l ochib berish uchun xizmat qiladi. Ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarishning bugungi yuksak taraqqiyoti o'z-o'zidan yangi ijtimoiy talablarni kun tartibiga qo'ymoqda. Mazkur ijtimoiy talablar sirasida jamiyat, qolaversa, uning negizida sohalar rivojini harakatga keltiruvchi kuch – malakali kadrlarni tayyorlash, ana shu maqsadga yo'naltirilgan tizimni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Malakali kadrlarni tayyorlashga bo'lgan ehtiyoj ishlab chiqarish korxonalari paydo bo'lgan, sanoat sohasi rivojining ilk bosqichlarida yuzaga kelgan bo'lsada, hanuzgacha o'z dolzarbligini yo'qotmay kelmoqda. Buning asosiy sabablari jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga bog'liq ravishda yangidan-yangi yo'nalishlar, ixtisosliklarning paydo bo'lishi, ular bo'yicha kadrlar tayyorlash zaruriyatining vujudga kelishi, o'zgaruvchan, tezkor davrda mutaxassislarining kasbiy bilim, malaka va mahoratlarini izchil ravishda oshirib borishga bo'lgan ehtiyojning shakllanishi, shuningdek, mutaxassis



sifatida mehnat bozoridagi kuchli raqobatga bardosh bera olishga bo'lgan talabning ortishi sanaladi [2].

Aslini olganda, turkiy xalqlarda adabiyot o'qitish bilan bog'liq masalalar juda qadim zamonlarga borib taqalishi hammaga ayon. Sharq, jumladan, Markaziy Osiyo xalqlari hayotida har doim ulkan ijtimoiy hamda ma'naviy ahamiyatga ega bo'lgan [8, 9]. Jumladan, jahon madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan, Markaziy osiyolik mashhur faylasuf, qomusiy olim Abu Nasr Farobiy "Ilmlarning kelib chiqishi" nomli risolasida badiiy asarni o'qish, o'qiganini hikoya qilib berish ham zo'r san'at ekani keltirib o'tilgan. Abu Rayhon Beruniy ham «Avesto», arab adabiyoti, «Kali-la va Dimna», hind adabiyotiga oid ko'plab asarlarni tahlil qilib, ularni qiyoslarkan, kitobxonni ulardan o'rnak va namuna olishga chaqiradi. Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida ham alohida, birgalashib va ko'plashib o'qish haqida qarashlar mavjudligini ko'rish mumkin.

Ko'rib turganimizdek, badiiy so'z, adabiyot va uni o'qitish bilan bog'liq masalalar, inson tarbiyasiga, uning kamolotiga ta'siri bilan bog'liq qimmatli fikrlarni uchratish mumkin.

Bugungi kundagi adabiyot o'qitish metodikasining tub zamiri ham aynan o'tgan asr boshlarida yaratildi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon kabi shoir va yozuv chilar o'zbek xalqining ma'rifatli bo'lishi ma'naviy kamolotning asosi ekanini nazarda tutib izlandilar, yangicha mazmundagi asarlar yaratishga kirishdilar.

O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi fanining rivojida 50-yillarda faoliyat ko'rsata boshlagan ko'plab olimlarning xizmati beqiyos. S. Dolimov, G.Karimov, N. Mallayev, H. Ubaydullayev, Q. Ahmedov, A. Zunnunov, S.Ismatov singari olimlar bu sohaning mustaqil fan sifatida kamol topishiga munosib hissa qo'shganlar. Ularning adabiyotshunoslikning turli sohalaridagi, metodika ilmidagi xizmatlari tufayli o'rta maktablar uchun tuzilgan dastur va darsliklar ma'lum darajada muntazamlik kasb eta boshladi. "Adabiyot o'qitish metodikasi" deb nomlangan birinchi darslik S.Dolimov va H.Ubaydullayevlar tomonidan yaratilgan. Darslikda ifodali o'qish, uning mazmun va mohiyati, turlari haqida yaxlit ma'lumotlar berilgan. Kitobda adabiyot o'qitishdagi nazariy asoslardan tortib, uning bevosita amaliyotdagi holatlarigacha bo'lgan hodisalar qamrab olingan. Bundan tashqari, adabiyot o'qitish metodikasi va uning nazariy asoslari, adabiy o'qish, adabiy o'qish yuzasidan sinfdan hamda maktabdan tashqari ishlar, rejalashtirish va jihozlash singari masalalari ham qamrab olingan. Amaliy faoliyat bilan aloqador masalalarga katta e'tibor berilganligi kitobning asosiy yutug'idir. Mualliflar har bir nazariy muammoni aniq misollar bilan dalillashga harakat qilishgan. Shunga qaramay, unda o'sha davr mafkurasining kuchli ta'siri ochiq sezilib turadi [3].

Mamlakatimiz o'z mustaqilligiga erishganidan keyin adabiyot o'qitish metodikasi ilmida ham keskin o'zgarishlar yuz bera boshladi. Chunki egamanlik ta'lim tizimi, xususan adabiy ta'lim oldiga ma'naviy komillik sari yuz tutgan avlodni shakllantirish vazifasini qo'ydi. Ma'lumki, komil shaxs tarbiyalash yuki hamma zamonlarda adabiyotning zimmasida bo'lgan. Bu davr metodistlarining har biri mazkur vazifani o'z imkoniyatlari darajasida uddalashga harakat qilmoqdalar.

Pedagogika fanlari doktori Safo Matjonov bugungi kunda ham adabiyot o'qitish muammolari va shakllanib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy kamoloti yo'lida kitobning ahamiyati, o'rni



va roli haqida izlanishlarini davom ettirmoqda. O'zbek adabiyot o'qitish metodikasi ilmida o'z salmoqli his-sasi bilan yetakchi o'rinlardan birini egallab turgan olim professor Qozoqboy Yo'ldoshev ham alohida tahsinga sazovor. 1997-yilda "Yangicha pedagogik tafakkur va umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiy-metodik asoslari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilishi ham adabiyot va uni o'qitish faniga ulkan hissa bo'ldi.

XULOSA

Ta'lim dargohlarida adabiyot darslarining o'qitilishi, o'quvchilarning har tomonlama mukammal bilim olishlari uchun jiddiy e'tibor berish talab etilmoqda. Yangi darsliklar, turli fanlarga oid ko'rgazmalar va ko'rsatmali vositalar, elektron kitoblar hamda turli internet saytlari bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bularning barchasi ta'lim tizimi rivoji va yangi davr kishilarini shakllantirishga qaratilgan. Adabiyot fanini o'qitishda darslikdagi ma'lumotlarni berish bilangina cheklanib qolish ta'lim sifatini ta'minlay olmaydi. Shuning uchun bugungi zamon pedagogi turli xil yangicha yondoshuvlar asosida o'qitish usullari orqali o'quvchini mavzuga jalb etish va DTS dan ko'zlangan maqsadga yetishi lozim. Bu chora-tadbirlar o'qituvchilarning kasb mahorati va o'quv jarayoniga qo'shgan shaxsiy hissasi, ta'limning yuqori samaradorligi hamda sifati, o'z bilimni muntazam takomillashtirib borishi, kasb mahorati va malakasini o'stirishi, o'qituvchi tomonidan yangicha pedagogik yondoshuv asosida ilg'or metodlar, pedagogik texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo'llashi uchun yaratilgan imkoniyatlardan to'liq foydalana olishi zarur [1, 2]. Buning uchun esa barcha imkoniyatlar yaratilgan. Hamma vaqt o'qituvchi, o'z o'quvchilariga nisbatan ko'proq shug'ullanib, bilim va mahoratini tinmay oshirib borishi zarur. Shundagina u o'z nomiga munosib faoliyat kishisi bo'ladi. Mehnatning samarasi sifatida har bir darsi mazmunli, maroqli orginalligi bilan farqli ekanligini, uning mashg'ulotlariga o'quvchilar tabora qiziqib borayotganliklarini, shogirdlarining dars jarayonida o'quv materiallarini, o'zaro ishtiyoq bilan o'rganishga kirishib faollik va uyushqoqlik ko'rsatayotganliklarini qalbdan his etadi. Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri yangicha pedagogik yondoshuvlar asosida interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Bunday yangicha pedagogik yondoshuv natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslangan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi [5, 6]. Adabiyot darslarida o'yin texnologiyalaridan foydalanish jadallashtiruvchi va faollashtiruvchi faoliyat bo'lib, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini tarkib toptiradi. Ta'limiy o'yinlardan, avvalo, mavzuga oid oddiy qiziqarli savol-javoblardan darsning ma'lum qismida foydalanish lozim. Shu tarzda testlar, boshqatirma, tez aytish kabi o'yinlar muntazam o'tkazib turilsa, o'quvchilarda ma'lum bir ko'nikmalar to'planib boradi. Bu esa o'quvchilarda ma'lum bir tayyorgarlikni, mustaqil o'qishni, ommaviy axborot vositalarini kuzatib borishni talab etadi. Shunga ko'ra o'quvchilar egallashi shart bo'lgan ko'nikma va malakalar: qayta (ko'rsatma) olish, aniqlash (o'lchay) olish, tasvirlay olish, tushuntira olish va bashorat qila olish kabilarni hosil qiladi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabr'dagi PF-5538 son "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar



- to'g'risida"gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.- Toshkent, 06.09.2018 y., 06/18/5538/1840-son.
2. Vazirlar Mahkamasiniig 2017 yil 6 apreldagi 187 son «Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi Qarori // O'zbekiston Respublikasi qonunchilik to'plami.- Toshkent
3. 2013. 20-son, 251 b.
4. O'.Tolipov, M.Usmonboyeva. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. T.Fan, 2006 y, 42-43 betlar. R.Ishmuxamedov Innovatsion texnologiyalar asosida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. T. 2004, 3-bet.
5. Khodjamkulov, U., Botirova, S., Shofkorov, A., & Abdirimova, I. (2020). Bases of Organizing Cooperation between Educational Institutions through Clusters (on the Example of the Education System of Uzbekistan). Journal of Critical Reviews, 7(12), 166-169.
6. <https://fayllar.org/reja-orta-osiyoda-adabiyot-oqitish-metodikasining-shakllanishi.html>
7. Qurbonova M.F. Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish kompetentsiyalarini shakllantirish ahamiyati // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2020. 3-maxsus son. – B. 29-33 (13.00.00. № 17).
8. Qurbonova M.F. Mustaqil ishlarni tashkil etish asosida boshlang'ich sinf
9. o'quvchilarining o'quv-bilish kompetentsiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan metodlar // Mug'allim ham yzliksiz bilimlendirio'. – Nukus, 2021. – B. 112-116 (13.00.00. № 20).
10. Ковалевой Г.С. Путь к мастерству: Психолого-педагогический практикум. - Рязань, 2004.
11. Дмитриев А.Е. Эффективность формирования умений и навыков в системе начального обучения // Педагогика. - 1991. № 5. - 23-29 с.